



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 138 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	



MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI JISMONIY TARBIYALASH MAZMUNI VA VAZIFALARI

Choriyeva Durdona Anvarovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti
Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, PhD

Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi

"Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi" yo'nalishi
4 kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish jarayonida bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash va jismoniy rivojlanishini ta'minlash masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Jismoniy tarbiyaning bolalarda harakat faolligini oshirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, sog'lom turmush tarziga oid ko'nikmalarni shakllantirish hamda sog'lom va barkamol shaxsni tarbiyalashdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada jismoniy tarbiya jarayonida gigiyenik sharoitlarning ahamiyati va ularning bolalarning aqliy, ruhiy hamda ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanish, jismoniy tarbiya, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, o'qish va savodga tayyorlash, gigiyenik sharoit.

Abstract: This article provides a theoretical analysis of strengthening children's health and ensuring their physical development in the context of improving the preschool education system. The role of physical education in increasing children's motor activity, developing physical abilities, promoting healthy lifestyle skills, and shaping healthy and well-rounded individuals is substantiated. In addition, the article highlights the importance of hygienic conditions in organizing physical education and their impact on children's mental, spiritual, and social-emotional development.

Key words: physical, mental, and spiritual development, physical education, social-emotional development, speech and literacy readiness, hygienic conditions.

Аннотация: В статье с научно-теоретической точки зрения рассматриваются вопросы укрепления здоровья и обеспечения физического развития детей в процессе совершенствования системы дошкольного образования. Обоснована роль физического воспитания в повышении двигательной активности детей, развитии их физических качеств, формировании навыков здорового образа жизни и воспитании здоровой, гармонично развитой личности. Особое внимание уделено значению гигиенических условий в организации физического воспитания и их влиянию на умственное, духовное и социально-эмоциональное развитие дошкольников.

Ключевые слова: физическое, умственное и духовное развитие, физическое воспитание, социально-эмоциональное развитие, подготовка речи и грамотности, гигиенические условия.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash va jismoniy rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishida muhim bosqich bo'lib, aynan shu davrda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalari shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash ularning harakat faolligini oshirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, sog'lom va barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli jismoniy tarbiyaning mazmuni va vazifalarini ilmiy asosda o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yefim Aronovich Arkin (1873-1943) – pedagogika fanlari doktori, shifokor va pedagog olim. U bolalar jismoniy tarbiyasi, bolalar gigiyenasi sohasida iliy asarlarni yaratdi. Uning asarlari: "Doshkolniy vozrast" (Maktabgacha yosh)(1948), "Ota-onalar uchun qo'llanma va ta'lim". U turli yosh davrning jismoniy va psixik rivojlanishi qonuniyatlarini ishlab chiqqan olimdir.



Bolaning biologik rivojlanishi jarayonini tabiiy fanlar majmui o'rganadi, ularning asosini I.M.Sechenov, I.P.Pavlov va ular izdoshlarining organizm va muhit birligi, organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi ta'limoti tashkil etadi.

Mashhur Yunon donishmandi Aflotun baxt haqida zikr etib: "Inson uchun birinchi baxt uning sog'lig'i, ikkinchisi - go'zallikdir" degan ekan. Darhaqiqat, salomatlik barcha boyliklar manbaidir. Nasl-nasabi sog'lom va ma'naviyati yuksak xalqning avlodlari ham sog'lom, baqquvvat, iymon-e'tiqodli va sadoqatli bo'ladi, bu baxt ona-Vatanning shuhrati va qudratining zo'r omiliga aylanadi. Xalqning ana shunday baxt saodati uchun sog'lom avlod kerak.

Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino "Badan tarbiya – sog'likni saqlashda ulug'vor usuldir" deydi, bu fikr "Kimki qilsa harakat – sog'ligida barakat" degan naqli eslatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim –tarbiya dasturi maktabgacha didaktika sohasida mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida yaratilgan. Dasturda ilk yoshdan 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalarni har tomonlama – jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutq o'qish va savodga tayyorlash, bolalarning bilish jarayonlari bo'yicha asosiy pedagogik vazifalar, egallanishi lozim bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy meyo'rlari yoritilgan. Dasturning vazifasi bolani jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va sog'lig'ini muhofaza qilish; erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan kamil inson qilib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlashning quydagi yo'nalishlari metodologik asos bo'lib hisoblanadi, bular:

- bolalarni jismoniy rivojlantirish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena;
- bolalarni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish;
- bolalarning nutqi, o'qish va savodga tayyorgarligi;
- bolalarning bilish jarayoni, atrof-olam to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lishi va uni anglash kabi ta'lim tarbiyaviy vazifalar kiritilgan;
- dasturning bolalarni jismoniy rivojlantirish, o'z-o'ziga xizmat va gigiyena yo'nalishi bo'lishi;
- bolalarning rivojlanish xususiyatlari yosh davrlar bo'yicha (tug'ilgandan-7 yoshgacha); yoritilib, har yosh davrga ta'rif beriladi, bolalarni jismoniy rivojlantirishning asosiy shartlari yoritilgan.

Jismoniy rivojlanish jarayoni quydagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Yirik motorikani rivojlantirish
2. Mayda motorikani rivojlantirish
3. Sensomotorikani rivojlantirish

Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi-bolani maktab ta'limiga tayyorgarlik ko'rsatkichlarini:

1. Jismoniy tayyorgarlik (bola rivojlanishining fiziologik darajasi);
2. Psixologik tayyorgarlik (bola shaxsi tarkibining hissiy, mental (aqliy), irodaviy rivojlanish darajasi);
3. Ijtimoiy tayyorgarlik (bolaning mazmunijihatdan ijtimoiy rivojlanish darajasi).

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish bo'yicha o'sishi, vazinning ortishi, sezgi a'zolarini mukammallashuvi, harakatlarni to'g'ri boshqara bilish bilan bog'liqdir.

Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o'zgarishlar ro'y beradi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi.

Odamning shaxs sifatida rivojlanishi uning jismoniy va ma'naviy kuchlari birligida har tomonlama va yaxlit amalga oshiriladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ma'naviy sifatlar, his-tuyg'ular (burch, vijdon, mas'uliyat, muhabbat) madaniyati aniq tarixiy ijtimoiy sharoitda yaratiladi va shaxsning shakllanishiga ta'sir, etadi.



Jismoniy rivojlanish – odam organizmining tarkib topishi, uning shakllari va vazifalarining o'zgarishini ifodalaydigan biologik jarayondir. Tor ma'noda bu antropometrik va biometrik ko'rsatkichlar: bo'yi, tana og'irligi, ko'krak qafasi aylanasi, o'pka sig'imi, qaddi - qomat va boshqalardir. Jismoniy rivojlanish biologik hayot qonunlari- muhit va organizmning birligi, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga muntazam ravishda o'tishga muvofiq tarzda amalga oshadi. Zotan, turmush sharoitini, jumladan jismoniy tarbiya metodlarini o'zgartirib, organizmning funksional imkoniyatlari darajasini ancha oshirish, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'zgartirish mumkin.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog'lig'ini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to'la ma'nodagi jismoniy tarbiya berish, madaniy – gigiyenik malakalarni shakllantirish, batartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan.

Bolaga ta'lim – tarbiya berishda amalga oshiriladigan har qanday ishning muvaffaqiyatli bajarilishi bolaning sog'lig'iga bog'liq. Shuning uchun ko'pchilik pedagogik ishlar bolaning jismoniy imkoniyati va sog'lig'ini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi.

Bolaning jismoniy rivojlanishi uning har tomonlama uyg'un rivojlangan inson bo'lib o'sishida muhim ahamiyatga ega.

Sog'lom, jismonan baquvvat bolaning ish qobiliyati ham yuqori bo'ladi, sharoitga oson moslashadi, har xil topshiriqlarni osonlik bilan tez bajaradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda ularning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Jadal o'sish va rivojlanish maktabgacha yoshdagi bola organizmining o'ziga hos xususiyatidir. Lekin sistemalar va ular vazifalarining shakllanishi xali tugallanmagan bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bola juda nozik bo'ladi. Shu munosabat bilan quyidagi sog'lomlashtirish vazifalari birinchi o'ringa qo'yiladi:

- hayotni muhofaza qilish, kasallikka qarshi kurash olib borish, organizmning tashqi muhit ta'siriga qarshiligini oshirish;
- organizmning barcha sistemalarini to'g'ri va o'z vaqtida rivojlantirish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish to'g'ri qaddi - qomatni uyg'un jismoniy rivojlantirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalar nafaqat o'qitish jarayoniga, balki bolaning psixik jarayonlariga, uning shaxsiy sifatleri, aqliy -ijodiy qobiliyatlarini, jismoniy rivojlanishiga yo'naltirilgandir. Ta'limning insonparvarligi sharoitida pedagogik texnologiyalar pedagogdan bolani jiddiy qabul qilish munosabatlarida ko'riladi.

Pedagogik jarayonlarda pedagogik texnologiyalar qo'llanilganda bularning samaradorligi diagnostika qilinadi. Bu esa bolaning ta'lim tasiriga ochiq munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatleri har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi. Bir o'quvchiga nisbatan foydali metodni boshqa o'quvchiga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib, chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchi xususiyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'limning samaradorligini boshqarishning algoritmining ya'ni kuzatishning tizimli qoidalari, qo'yilgan o'quv va tarbiyaviy maqsadlarini bajarishda bolalarning qabul qilish faoliyatini kuzatish va tuzatish bilan aniqlanadi.

Bolalarning jismoniy rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va uning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash, doimiy ravishda bolalarning jismoniy rivojlanishini tahlil qilib borish, bolalarning jismoniy rivojlanishi bo'yicha ota-onalar bilan hamkorlik qilish, sog'lom turmush tarzining muhimligini tushuntirish va uni ta'lim-tarbiyaviy jarayonga tadbiq etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishi uchun gigiyenik sharoit (bino, maydoncha, jihozlar, kiyim – bosh, poyabzal) yaratish, bolalar hayotining ilmiy asoslangan rejimini (bular oqilona ovqatlanish, harakatlarni rivojlantirish va organizmni chiniqtirish tadbirlarini o'z ichiga oladi) albatta bajarish zarur. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlarining doimiy nazorati, zaruriy profilaktik va davolash ishlarini olib borishi talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har bir guruh uchun xonalar ajratiladi. Guruh xonalari bolalarning erkin harakat qila olishi va sof havo bilan nafas olish imkonini beradigan darajada katta, yorug', quruq va issiq, derazalari janubi – sharqqa qaragan bo'lishi kerak.



Guruh xonasining balandligi 3 – 3,5 m bo'lib, har bir bolaga bino sathidan 2,5 kv. m joy, taxminan 8 kub m havo to'g'ri kelishi; xona bezagi gigiyenaga xos, tez toza bo'ladigan, yoqimli, yumshoq rangda bo'lishi kerak. Guruhda tartib bo'lishiga rioya qilish zarur. Xonada yorug'likni to'sadigan og'ir va qalin pardalar, gilamlar, yumshoq mebellar, umuman ortiqcha narsalar bo'lmasligi kerak. Hamma jihozlar ta'lim – tarbiya talabiga, bolalarning bo'yi va gavda tuzilishiga mos bo'lishi va xalq ta'limi vazirligi tomonidan qo'yilgan maxsus normaga javob berishi lozim.

Bolalarning stol stullari ancha mustahkam va yengil tuzilishi sodda hamda oson yuviladigan bo'lishi kerak. Stollar yorug'lik chap tomondan tushadigan qilib joylashtirilishi lozim. Uyinchok va ko'rgazmali qurollar ham gigiyenik talablarga javob beradigan, pishiq, zararsiz rangda, tashqi ko'rinishi silliq bo'lishi kerak.

Tarbiyachi o'z guruhining gigiyenik sharoiti uchun javobgardir. Xonani bolalar sayrga, musiqa mashg'ulotiga chiqib ketgandan keyin shamollatish, deraza fortochkalari esa yil fasllaridan qat'iy nazar doimo ochiq bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2013.
2. Chorieva D. Improving students' readiness for pedagogical diagnostics of preschool children // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
3. Choriyeva D. Tarbiyachining pedagogik mahoratini oshirishda pedagogik texnikaning roli // Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: nazariy va amaliy izlanishlar. – 2022. – T. 1, № 24. – B. 101–103.
4. Chorieva D. A. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini oshirish yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, – 385 b.
5. Chorieva D. Improving students' readiness for pedagogical diagnostics of preschool children // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
6. Chorieva D. Diagnostics as a branch of psychological and pedagogical knowledge and type of research activity of a teacher // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
7. Choriyeva D. Oila va maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshiriladigan ijtimoiy vazifalar // Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1, № 32.
8. Chorieva D. Diagnostics as a branch of psychological and pedagogical knowledge and type of research activity of a teacher // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 8, № 3.
9. Чориева Д. А. Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования // Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации. – 2019. – С. 86.
10. Чориева Д. А. Методы и приёмы работы с агрессивными детьми // Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста. – 2021. – С. 152–161.
11. Чориева Д. А. Педагогик-психологик диагностика фаолияти билан шуғулланувчи шахсга қўйиладиган талаблар // Образование и инновационные исследования: международный научно-методический журнал. – 2022. – № 9. – С. 99–102. – DOI: 10.53885/edinres.2022.9.09.014.
12. Chorieva D. A. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy mahoratlarini oshirish yo'llari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, – 385 b.
13. Sheraliyevna O. H. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 8, № 4. – В. 70–75.
14. Sheraliyevna O. H. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining grammatik to'g'riligini shakllantirish // Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10, № 1. – В. 179–185.
15. Raxmatovna M. Y. The importance of developing technical creativity and engineering skills in preschool children. – 2025. – Shokh Library.
16. Maxmutazimova Y. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda STEAM texnologiyasidan foydalanish // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2025. – Т. 3, № 1.
17. Maxmutazimova Y. The role of the kindergarten teacher in the formation of the child personality // Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – Vol. 1, № 1. – P. 546–548.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.